

**INSONIYATNING TARIXIY RIVOJLANISHIDA MATRIARXAT DAVRI**

*Saydullayeva Aynurа Jiyenbay qizi  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
Tarix 2-kurs talabasi  
[saydullayevaaynura2@gmail.com](mailto:saydullayevaaynura2@gmail.com)*

**Annotation**

Ushbu maqolada insoniyat tarixining ibridoiy davrlarida mavjud bo‘lgan matriarxat jamiyat tuzilmasi, uning shakllanish sabablari, ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘rnii tahlil qilinadi. Matriarxat davrida ayollarning urug‘ boshqaruvidagi yetakchilik roli, ona urug‘i tizimi, mulk munosabatlari va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq jihatlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, bu davrning arxeologik va etnografik dalillar orqali tasdiqlangan holatlari ham ko‘rib chiqiladi. Maqola tarixiy jarayonlarning mantiqiy izchilligida matriarxatning ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** matriarxat, ibridoiy jamiyat, ona urug‘i, , ayol yetakchiligi, arxeologik dalillar, etnografiya, jamiyat tuzilmasi.

**Аннотация**

В статье анализируется матриархальная социальная структура, существовавшая в первобытные периоды истории человечества, причины ее формирования и ее роль в общественной и культурной жизни. На основе научных источников рассматриваются руководящая роль женщин в управлении родом в эпоху матриархата, аспекты, связанные с матриархально-родовой системой, имущественными отношениями и религиозными верованиями. В нем также рассматриваются обстоятельства этого периода, подтвержденные археологическими и этнографическими свидетельствами. В статье раскрывается значение матриархата в логической последовательности исторических процессов.

**Ключевые слова:** матриархат, первобытное общество, материнский род, женское лидерство, археологические свидетельства, этнография, социальная структура.

**Abstract**

This article analyzes the matriarchal social structure that existed in the primitive periods of human history, the reasons for its formation, and its role in social and cultural life. The leadership role of women in the management of the clan, the maternal clan system, property relations, and religious beliefs during the matriarchy period are covered based on scientific sources. The cases of this period, confirmed by archaeological and ethnographic evidence, are also considered. The article reveals the importance of matriarchy in the logical sequence of historical processes.

**Keywords:** matriarchy, primitive society, maternal clan, , female leadership, archaeological evidence, ethnography, social structure.

Tarix insoniyatning buyuk xotirasidir. Unda ajdodlarning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi. Biz tarixni o'rganar ekanmiz o'zligimizni anglay boshlaymiz. Ko'plab savollarimizga javobni ham tarixni o'rganish orqali bilib olishimiz mumkin. Tarixni o'rganishda bizga katta yordam beradigan tayanch bu davrlar hisoblanadi. Olimlar axreologik topilmalarini o'rganish mobaynida tosh quollarining yasalish usuliga qarab davrlashtirishni ma'qul ko'rishgan. Har bir davr o'ziga xos iqtisodiy, siyosiy asosga, moddiy, ma'naviy va madaniy turmush tarziga ega. Har bir tarixchi davrlar xususiyatlarini aniq bilishi va talqin qila olishi lozim. Davrlar xususiyatini to'liq anglash tarixiy voqealarni haqqoniy baholashda va o'sha davr ruhiyatini to'liq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixini davrlashtirish masalasi A.Asqarovning "O'zbek halqining kelib chiqish tarixi" monografiyasida keng yoritilgan va unda tarixni davrlashtirishda nimalarga e'tibor berish lozimligi ta'qidlanib, O'zbekiston tarixini 7 ta davrga bo'lib o'rganish muvofiqligi ilgari surilgan.

I.O'zbekistonda "Ibtidoiy to'da davri" (mil. avv. I million – 40 ming yilliklar).

II. O'zbekistonda "Ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri" (bundan 40 ming yil avval to milodiy III-IV asrlargacha). Bu davrni uch bosqichga bo'ladi: 1 bosqich – matriarxat urug' jamoasi bosqichi. 2 bosqich - patriarchal urug' jamoasi bosqich. 3 bosqich urug' jamoalarining harbiy demokratiya bosqichi.

III. O'zbekistonda "Ilk o'rta asrlar davri" (milodiy V asrdan to VIII asr oxirigacha).

IV. "O'rta asrlar davri" (9 asrdan Somoniylar davlatini tashkil topishidan to XIX asr o'rtalarigacha).

V. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixining beshinchi davrini "Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri" deb atash mumkin. Uning davriy chegarasi – Chor Rossiyasi bosqinidan to 1917 yil Oktyabr to'ntarishiga qadar davom etgan davrni o'z ichiga oladi.

VI. O'zbekiston tarixining oltinchi davri "Sovetlar hokimiyati davri" bo'lib, bu davr 1917 yildan 1991 yilgacha davom qilgan.

VII. O'zbekiston tarixining yettinchi davri "Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri" deb atab, bu davr 1991 yil 31 avgustdan to bugungi kungacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi<sup>1</sup>. Paleolit davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan tarixiy davr bo'lib 2,5-mln yildan 12-ming yillikkacha bo'lgan davrni o'z

<sup>1</sup> A.Asqarovning "O'zbek halqining kelib chiqish tarixi"

ichiga oladi. Paleolit davri o‘z navbatida ilk paleolit (2,5 mln–100-ming yilliklar), o‘rta paleolit (100–40-ming yilliklar) va so‘nggi (yuqori) paleolit (40–12-ming yilliklar) bosqichlariga bo‘linadi. Paleolit davri, shuningdek, shel, ashel, muste, orinyak, solyutre va madlen kabi arxeologik bosqichlarga ham bo‘linadi. O‘zbekistonning paleolit davri yodgorliklarini o’rganishda qadimshunos olimlarning xizmatlari katta A.P. Okladnikov, O’. Islomov, M.R. Qosimov, T. Mirsoatov, R.H. Sulaymonov, E.B. Bijanov va boshqalar. Ilk paleolit davri odamlari toshdan ishlangan sixchalar, chopqichlar, qo‘l cho‘qmorlari, tosh parchalari va siniqlaridan ishlangan qurollardan foydalanishgan. Qurollarning ko‘pchiligi tashqi ko‘rinishda qo‘pol va soddadir. Eng qadimgi tosh qurollar mintaqaning turli hududlarida Janubiy Tojikistondagi Qizqal’a, Janubiy Turkmanistonda Qoratangir, Qirg’izistondagi On-Archa daryosi bo‘yida (Norin tumani), Janubiy Qozog’istonda Chimkent shahridan shimoldagi Kichik Qoratog’ oldida Bo‘riqazigan va Tanirqazigan makonlaridan topilgan.<sup>2</sup> Bu davr odamlari tabiatga to‘la qaram bo‘lib, uy-joy qurilishini ham, olovdan foydalanishni ham bilmaganlar. Yirtqich hayvonlardan oddiy va dag‘al qurollar bilan himoyalanganlar. Tabiat ham insonlar yashashi uchun qulay, issiq bo‘lgan. O‘rta paleolit davri ilmiy adabiyotlarda muste deb nomlanadi. Bu davrga oid moddiy yodgorliklar dastlab Fransiyaning Muste g’or makonida topilgani uchun shunday nom olgan. O‘rta paleolit davri mil.avv. 100-40 ming yilliklami o‘z ichiga oladi. Hozirda esa, O‘zbekiston arxeologiyasining yutuqlariga asoslanib, uning davri mil.avv. 200-100 ming yilliklar bilan belgilanmoqda.<sup>3</sup> O‘rta paleolit davrida ibtidoiy odamlar hayoti nihoyatda og‘ir kechgan. Bu davrda er yuzida muzlik davri bo‘lgan. Ibtidoiy odamlar sovuqqa moslashish uchun avvalgi turmush tarzini o‘zgartirishga majbur bo‘lishgan. Sovuqdan himoyalanib, g‘orlarni o‘zlashtirganlar. Hayvon terisidan kiyim tikib kiyganlar va gulxan atrofida jon saqlaganlar. Termachilikning ahamiyati pasayib ketgan. Ovchilikning insonlar tirikchiligidagi ahamiyati oshgan. Bu esa ov uslublarini va qurollarini takomillashtirishni taqoza etgan. Ular to‘da - to‘da bo‘lib yurib, olov bilan hayvonlarni yo jarlikka, yo g‘or ichiga haydab tutganlar. Toshni qayta ishslash texnikasi takomillashgan. Ixcham qurollar yasay boshlaganlar. Bunda yangi usul **yorma texnikadan** foydalanganlar. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni urib, tekis maydoncha hosil qilinib, shu maydoncha orqali toshning mayda paraqalari ajratib olingan. Toshdan barcha paraqalar olingach, uchirib bo‘lmaydigan o‘zak qolgan. Bu o‘zak **nukleus** deb atalgan. So‘nggi paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O‘rta Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlaydilar, ulaming turmush tarzida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bocladi. Qurollarning turlari ko‘payadi. Ayniqsa, ovchilik bilan bog‘liq bo‘lgan nayzasimon o‘tkir qurollar, turli pichoqlar,

<sup>2</sup> A. Sagdullaev. O‘zbekiston tarixi. 42-bet.

<sup>3</sup> Egamberdiyeva. N. Arxeologiya. 22-bet.

qirg‘ichlar va keskichlar shular jumlasidandir. So‘nggi paleolit davrining eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda ibtidoiy to‘dadan urug‘chilik jamoasiga o‘tila boshlandi. So‘nggi paleolit davri odamlaming zamonaviy jismoniy qiyofasi shakllanishida, ibtidoiy to‘dadan urug‘ jamoasiga o‘tilishida, tosh qurollar tayyorlashda yangi yutuqlar qo‘lga kiritilishida muhim ahamiyat kasb etgan davrdir. Bu davrga kelib, mehnat qurollari yashash texnikasida, qadimgi odamlaming yashash sharoiti hamda turmush tarzida, ulaming ijtimoiy munosabatlarida, fikrlash va dunyoqarashida, jismoniy qiyofasida keskin o‘zgarishlar bo‘lib o’tdi.<sup>4</sup>

Matriarxat lotincha “mater” - ona va yunoncha “arche”- hokimiyat ya’ni ona hukumronligi davri hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyatning ilk davridagi ijtimoiy tuzum shakllaridan biri hisoblanadi. Matriarxat turli xil muhim masalalarda ayollar erkaklar ustidan ma’lum ustinlikka ega bo’lgan. Masalan: ayollar turli siyosiy, ijtimoiy, oilaviy, iqtisodiy va diniy rollarda kuch va yetakchilikka ega bo’lishgan. Ular muhim qarorlarni qabul qilganlar, boshqalarga buyriq bergenlar va qarindoshlik ayollar tomonidan belgilangan. Matriarxatning rivojlangan davrlaridan biri bu – mezolit hisoblanadi. Mezolit davri – milloddan avvalgi 12-ming yillikdan 7-ming yillakgacha bo’lgan davrlarni o’z ichiga oladi. Mezolit - odamlaming yer yuzi bo’ylab keng tarqalish davri bo‘lib, ular dengiz, ko’llar va daryo bo’ylari hamda tog‘li hududlarda yoyilishgan. Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzlikning yana shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib, hozirgi davrdagiga ancha o’xshab qolgan edi. Mazkur davrning eng katta yutuqlaridan yana biri Yaqin Sharq hududlarida yovoyi hayvonlar - it, qo‘y, echki kabilaming qo‘lga o‘rgatilib, xonakilashtirilishi bo‘ldi. O’q-yoy ixtiro qilindi. Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi Machay (Boysun) g’or-makonidan ko’plab suyak va tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, kabilardan iborat bo’sa, tosh qurollar - pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushatgich toshlar, nayza va o‘q uchlari kabilardir. Machay g’orida bo’ri, tulki, bars, mo’ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan. Machaylik mezolit davri odamlari olovdan keng foydalanishgan hamda hayvon va parranda go’shtlarini olovda pishirib yeyishgan. Matrialxatning yana bir rivoj topgan davrlaridan biri neolit hisoblanadi. Neolit davri xronologik jihatdan miloddan avvalgi V I - IV ming yilliklarni o’z ichiga oladi. Neolit davrida ibtidoiy qabilalar o’troq turmush tarziga o’tganlar. Doimiy yerto’la loy guvaladan qurilgan kulbalarda yashaganlar. O’troq turmush tarzi janubiy hududlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho’l mintaqalarda esa, o’troq ovchilik xo’jaligining qaror topishiga olib kelgan. Keyinchalik ovchilik xo’jaligi zamirida chorvachilik paydo bo’ladi. Neolit davrining eng katta yutug‘i ham dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi edi. Ko’pchilik olimlar bu kashfiyotning insonlar hayotidagi ahamiyatini inobatga olib,

<sup>4</sup> Egamberdiyeva. N. Arxeologiya. 44-bet.

neolit davri inqilobi deb baho beradilar. Ibtidoiy odamlarning o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishdi. Bu davrda O'rta Osiyonin iqlimli janubiy o'lkalarida yashagan kishilar dehqonchilik, chorvachilik va uy hunarmandchiligi bilan mashg'ul bo'lishgan. Shimoli - sharqiy qismida yashovchi aholi tabiiy sharoit tufayli , asosan, o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan shug'ullanib, moddiy madaniy jihatidan orqada qolib ketgan. Janubiy Turkmaniston aholisi 8 - 7 ming yil avval dehqonchilikning dastlabki shakllari bilan shug'ullana boshlashgan. Bu hududlarda ilk neolitda o'troq manzilgohlar va guvaladan qurilgan uylar paydo bo'ladi. O'rta Osiyoning boshqa hududlarida neolit davri qabilalari daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashashgan va asosan, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davrining eng katta yutuqlaridan biri bu kulolchilikning kashf qilinishi bo'lgan. Neolit davrida kulolckilikdan boshqa to'qimachilik ham kashf qilingan va o'zaro buyum va oziq - ovqat almashinuvi rivojlangan.

### **Xulosa:**

Matriarxat davrida turli xil o'zgarishlar yuz berdi. Insoniyat turli tabiat hodisalarini anglay boshladi va turli muammolarga yechimlar topishdi. Vaqtlar o'tib turli qurollarning yaratilishi va o'zgara borishi sababli ayollar undan foydalanishi qiyinlasha boshladi. Bu esa ularning ovda qatnashishini qiyinlashishiga olib keldi. Ovda olib kelingan o'ljalarni taqsimlash, bolalar tarbiyasi va uydagi ishlar bilan shug'ullana boshlagan ayollarning birmuncha mavqeい pasaydi. Bronza davriga kelib esa patriarxat davri boshlandi. Ya'ni ota urug' davri endilikda har bir ish erkaklar tomonidan hal etiladigan bo'ldi.

### **Adabiyotlar:**

1. A. Sagdullaev. O'zbekiston tarixi. – Toshkent. 2000.
2. A. Sagdullaev. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent. 2004.
3. Abisher Elmurodovich. Markaziy Osiyo va jahon sivilizatsiyasi. – Toshkent 2020.
4. Узбекистон миллий энсеклопедияси. – Тошкент. 2000.
- 5.Джураев Икром. Узбек халки этногенезининг илк боскичи. – Тошкент. 2021.
6. Egamberdiyeva. N. Arxeologiya. – Toshkent. 2011.